



O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2005-yil 26 - dekabr — 2006 - yil 1 - yanvar N:52 (66541)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

YANGI YILNING MUBORAK BO'LSIN!!!



**SAHIFALARDA
HAMMA ISHDA
SARISHTA
BO'LING!**



4 - BETDA

**MAKTABDAGI
MUHABBAT**



6 - BETDA

YANGI YILNI KIM

QANDAY KUTADI?



8 - BETDA

TUSHINGA KIRADI OPPOQ, TOZA QOR

Tushinga kiradi oppoq, toza qor,
Kapalakdek parchalar buncha beg'ubor.
Ilk saharda yog'ar qilmay intizor,
Olam oq libosda qishning zavqi bor.

Yastanib yotibdi bepoyon dala,
Ko'm-ko'k maysalarning usti to'la qor.
Ko'nglimda bir ajib tuyg'u - g'ulg'ula,
Olamni burkagan qish shodligi bor.

Xayolga burkanar oqar daryolar,
Atrofni burkagan yorug' ziyolar.
Vo ajab, ko'z ochsam atrof to'la qor,
To'kinlik, baraka zaminimga yor.

VATAN SOG'INCHI

Vatandan yiroqda, sog'inch yurakda,
Ortga omon qaytmoq orzu-tilakda.
Sog'inar, entikar sen tomon jonim,
Yiroqda so'ylayman O'zbekistonim.

Seni sog'inaman bo'lib intizor,
Go'yo Bobur kabi ne'matingga zor.
Hech yurt go'zallikda senga yetolmas,
Bag'ringda ko'z ochgan farzand ketolmas.

Gulchehra RAHIMOVA,
Qorag'alpog'iston Respublikasi,
To'rtko'l tumani.



Mana bir necha yildirki, sinfimiz o'quvchilari bilan birgalikda «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lib kelimiz. Lekin hali uning birorta sonini ham miriqib o'qiy olganimiz yo'q. Chunki gazeta maktabimiz kutubxonasiga keladi. Kutubxonachi opamiz ularni bizga tarqatmaydilar. Gazetani o'qish uchun kutubxonaga borsak, keyinroq kelinglar, hozir juda odam ko'payib ketdi, deya chiqarib yuboradilar. Birozdan keyin borsak, eshik yopiq bo'ladi...

Bu holdan hafsalasi pir bo'lgan sinfdoshlarim gazetaga obuna bo'lmay qo'yishdi.

Men esa 2006-yil uchun «Tong yulduzi»ga uy manziligim obuna bo'ldim. Endi uni uka va singillarim bilan bemalol o'qiyman. Har bir sonini tahlam qilib yig'ib boraman. Chunki ona tili va adabiyot darslaridan referat va insholar yozishimda ular juda qo'l keladi...

Yaqinda kutubxonachimiz o'zgardi. Endi gazetalar o'z vaqtida egalari yetib borsa kerak.

Dilrabo DO'STQOBILOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
118 - maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi.

2006-YIL - HOMIYLAR VA SHIFOKORLAR YILI

Yangi yilimizning ko'ngillarga surur bag'ishlab boshlanayotgan birinchi kuni tarix zarvaraqlariga ana shunday nom bilan muhrlanib qoladi. Homiy deyilganda, barchamizning ko'z o'ngimizdan nafaqat saxovatpesha, balki o'z iymon-e'tiqodlari bilan ertamiz ravnaqiga-ravnaq qo'shayotganlar, o'zining mehr-u muruvvati bilan kemtik ko'ngillarni to'ldirayotgan insonlar gavdalanadi.


Shifokor - o'zining Gippokrat qasamiga sodiq holda bemorlarning dardiga davo topuvchidir. Oq rang poklik ramzi. Egniga oppoq xalat kiygan bu insonlar bemor uchun jon fido qilishga tayyor.

Gullab-yashnayotgan mustaqil diyorumizda elu- elatlar manfaati hamma narsadan ustun. Ertamiz egalari bolajonlarimizning yayrab kamol topishi har jihatdan ana shu homiylarimiz va shifokorlarimizga bog'liqdir. Yurtboshimiz zikr qilganlaridek, o'z nomlari bilan atalib kelayotgan yillarimiz, ularda amalga oshirgan ibratli g'oyalar ko'z o'ngimizda o'z samarasini bermogda. Yakunlanayotgan yilimizda o'nlab yangi ta'lim maskanlari, sport-sog'lomlashtirish inshootlari, tibbiy markazlar qad rostladi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'lom kelajak, diyorumizdagi islohotlarning tub negizidir. Taraqqiyotimizning asl mohiyatini teran

anglayotgan har bir yurtodoshimiz yasharish, yaratish zavqi bilan mehnat qilmoqda. Yoshlarimizning fan-texnika sirlarini, qadim an'analirimizni qunt bilan o'rganib, dunyo miqyosiga olib chiqayotganligi bizning eng katta yutug'imiz. O'sib kelayotgan avlodlarga yorug' yo'lni meros qilib qoldirgan bobolarimiz va momolarimizning xolis niyatlari

bugunimiz va ertamizda ijobat bo'lmoqda. Ming-minglab qorako'z bolajonlarimiz, 'kekse-yu yoshning ko'ksiga tekkan hurlik shamoli umri boqiydir.

Xalqimiz dilidagi xayrli ezgu-istaklar parvozi yanada yuksak. Aziz yurtodoshlarimizni, katta-yu kichik, barcha-barchani kirib kelayotgan 2006- yil - Homiylar va shifokorlar yili munosabati bilan chin qalbimizdan muborakbod etamiz. Tinchlik bayoti xushnud etayotgan ravshan ko'nglimizni yaxshi niyatlar aslo tark etmasin. Yangi yilning har lahzasi umringiz mazmuniga yanada yorqinroq mazmun qo'shsin!



SHIFOKORNING SO'NGGI SO'ZI

— Erkin, tezroq chiq, paqildoqlaringni olishni ham unutma, - deya shoshirdi Shokir o'rtog'ini.

— Hozir, mana ketyapman, - shunday deya Erkin kecha bozordan sotib olgan bir quti paqildoqlarini cho'ntagiga joylab, uyidan otilib chiqdi.

Ular katta ko'chaga chiqib, paqildoqlarini birin-ketin paqillata boshlashdi. Bundan bezor bo'lgan bekatdagilar ular tomonga norozi bo'lib qarab qo'yishar, ikki do'stning esa parvoyi palak edi.

— Hoy bolalar, nariroqqa borib o'ynasalar-chi, odamning asabiga tegdilaring-ku, - dedi bekatda turgan bir ayol toqati toq bo'lib. Bolalar biroz nari ketishdi. Shu payt Shokirning ko'zi yo'l chetida yotgan shisha idishga tushib qoldi.

— Erkin, miyamga ajoyib fikr keldi: anavi butilkaning ichiga paqildoqlarni joylashtirib,

do'kon tomon otamiz. Anavi qizlarning bir yuragini yoraylik, - dedi

do'konga kirib ketayotgan qizlarga ishora qilib. Bu fikr Erkinga ham yoqdi. Ular butilkaning ichiga paqildoqlarni joylashtirib, gugurt yoqishdi-da, do'kon tomon uloqtirishdi. Dabdurustdan shisha butilka oyoqlarining tagiga kelib tushganidan qo'rqib ketgan qizlar, ular tomon o'qayib qarab qo'yishdi. Hozir birdan paqillab ketishini kutgan bolalarning umidi puchga chiqdi. Shisha idish paqillamadi.

— Paqillamadi-yu, - dedi Shokir alam bilan.

— Yur, yaxshisi borib ko'ramiz, - dedi Erkin.

Ular shisha idishni qo'llariga olgan ham edilar-ki, paqillagan ovozdin hamma cho'chib tushdi. Erkin bilan Shokir esa...

Do'kon ishchilari tezda «Tez yordam» chaqirib, bolalarni kasalxonaga jo'natishdi. Shokir bilan Erkinning qo'llari, yuzlari

kuygan, buning ustiga shisha bo'laklari sachrab, yuz-qo'llarini kesib yuborgandi. Bosh shifokor jarohatlarni bog'lab qo'ygach, ularning qilmishlariga yarasha jazo olishganini, bundan ham battar bo'lishi mumkinligini aytib, tanbeh berdi. Voqeadan xabar topib kelgan ota-onalarini ham «shirin so'zlar» bilan siyladi.

— Bolalaringizning baxti bor ekan, - dedi shifokor. Agar shisha qon tomirlarining birini kesib ketgandami, unda biz yordam bera olmasdik. Bolaga bee'tibor bo'lmang-da. Ularning nima bilan shug'ullanishayotganini nazorat qilib borish kerak. Bu sizlarga so'nggi gapim, - dedi shifokor.

Bu gaplarni eshitgan Shokir bilan Erkin boshqa paqildoq o'ynamaslikka ahd qilishdi.

Aziz bolajonlar! Shokir bilan Erkinning qilmishlari siz uchun saboq, deb o'ylaymiz. O'zingizni, qolaversa, yon-atrofdagi o'rtoqlaringizni bunday noxushliklardan asrang.

Ozoda TURSUNBOYEVA.

Ota - onalar diqqatiga!

Faxr

«BOSHOQACHA YASHOLMAYMAN...»

Sabiha opadagi o'qituvchilikka bo'lgan havas bolaligidanoq uyg'ongandi. O'rtoqlari qo'g'irchog'-u o'yinchoqlar bilan andarmon bo'lib yurishganda, u qo'lga kitob-daftar olib, «o'qituvchi-o'qituvchi» o'ynayverardi. Maktabga chiqib, birinchi ustozidan saboq ola boshlaganda esa mittigina qalbidagi bu ishtiyoq yanada ortdi. Yoshi bilan barobar maqsadlari ham ulg'ayib, niyatlari jiddiylashib boraverdi. Maktabni bitirgach, hech ikkilanmay hujjatlarini Toshkent Davlat Pedagogika institutiga topshirdilar. Oliygo'ha ham zo'r ishtiyoq bilan o'qidilar.

Mana 21 yildirki poytaxtdagi 322-maktab o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan Sabiha opa hamon izlanishda, o'z ustida tinmay ishlaydilar. Ayrim o'qituvchilar kabi darsingni o'tdingmi, o'tdim, qalibda ish tutishga ularning vijdoni yo'l qo'ymaydi. O'quvchilarga dastur bo'yicha saboq berish bilangina kifoyalanib qolmay, qo'shimcha manbalar, adabiyotlardan ham keng foydalanadilar. Ustoz uyda ham tinib-tinchimaydilar: uch o'g'ilning yumushlari, tashvishlaridan ortib, allamahalgacha yozuvchizuv qilib o'tiradilar. Umr yo'ldoshlari Mahmud aka gohida achinib, kel, shu ishingni qo'yagol desalar, «dadasi, men boshqacha yashay olmayman», deya javob beradilar...

Shunda, o'qituvchilar orasida mo'may daromadni deb shunday sharaflil kasbidan kechib ketayotganlar ham yo'q emasligi yodimga tushadi. Yaxshiyamki, ular ozchilik, Sabiha opa singari fidoyi ustozlar esa juda ko'p.

Nargiza AKBAR qizi.

G'UNCHALAR QO'SHIG'INI TINGLAGAN SHOIR



O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, «Hurmat belgisi» ordeni, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ikki yilligi va o'n yillik nishonlari hamda bir necha medallar sovrindori, bolalarning sevimli shoiri Ollabergan PO'LAT bu yil qutlug' 70 yoshga to'ldilar. Xorazm viloyatining Xonqa tumanida dunyoga kelgan Ollabergan aka mehnat faoliyatini pedagoglik sohasidan boshlagan edilar. 1960-yildan beri «Xonqa hayoti», hozirgi «Shonli mehnat» gazetasi muharririya-tida adabiy xodim, mas'ul kotib, muharrir o'rinbosari vazifalarida faoliyat ko'rsatib, 1974-97 - yillar davomida gazetaga muharrirlik qildilar. Ma'naviy boy, chin inson, talabchan rahbar bugungi kunda o'z jamoasi hurmatiga, el e'zoziga sazovor.

Nafaqada bo'lishlariga qaramay, tinib-tinchimaydi, ijod qilishdan charchamaydi. Shoirning kichikintoy bolajonlarga atalgan o'ndan ortiq «G'unchalar qo'shig'i», «Bir ko'za oltin», «Cho'lda bulbul sayraydi», «Ajabto'vur bolalar», «Jaloliddinning shamshiri», «Tongga ochaman quchoq», «Qo'ng'iroqcha» she'riy kitoblari chop etilgan.

Muborak 70 yoshingiz qutlug' bo'lsin, Ollabergan bobo!

Qutlov

BO'LSA BO'LIBDI UKAM

Husanjonga meningday,
Bo'lg'in desam savodxon.
— Tag'in, - deydi u, — menga
Qo'ymoqchisiz-da «yomon».
«O»ni o'rgatganimday
To'g'ri yozolmasa ham,
Qandayin «5» qo'yaman,
Bo'lsa bo'libdi ukam.

SHIRIN NON

Buyimlar non yopsa, biram,
Bo'lar shirin, bo'lar xushta'm.
Shundan uni chaqirishar,
Non yoping deb, to'ylarga ham.
Insonki u eng bag'ri keng,
Non yopishda kim unga teng?...
Ey, yo'lovchi amakijon,
Siz ham kelib shirin non yeng.

JUDA SOZ KO'CHAMIZ

Juda toza ko'chamiz
Chang, g'ubordan yo'q nishon.
Bamisoli oynadek
Yaraqlab turar har yon.

Har kun tong-la qo'yamiz
Suv sepib va supurib.
Xursand bo'lar, shod bo'lar
O'tgan-qaytganlar ko'rib.

Ollabergan PO'LAT.

KUCHUK YILDA TUG'ILGANLAR QANDAY ODAMLAR?

Kuchuk - adolat belgisi. Doimo ziyrak va orom nimaligini bilmaydigan insonlar aynan shu muchal ostida tug'ilganlardir. Ular vafodor, odil, qalbi pok, o'ta kamtar, sir saqlay oladigan odamlar bo'lib, har qanday adolatsizlikka qarshi qo'rqmasdan, dadil kurash olib boradilar. Bir ishni boshlasalar, oxiriga yetkazmay qo'ymaydilar va ko'pincha g'alaba qozonadilar. Kamdan-kam hollarda hissiyotlarini yuzaga chiqarishadi. Nimani xohlayotganliklarini doimo yaxshi bilishadi. Hayotdan hech narsa kutmaydilar, shuning uchun ham o'zlari doimo izlanishda bo'lalilar. Shu hislatlari uchun ham ularni ko'pchilik yaxshi ko'radi.

Bu muchal vakillari gavjum yig'inlarni yoqtirishmaydi. Tabiatidagi kamchiliklariga qaramay, yaxshi xislatlari ham yo'q emas. Tashqaridan sovuqqon ko'ringanliklari bilan aslida unday emaslar. Biroq o'ta qaysar va biroz xudbin ham bo'lishadi. Hamma narsaga tanqidiy nazar bilan boqishadi. Yer yuzidagi ochlik, urushlar va falokatlaridan qayg'urishadi. O'zgalarning omadsiz taqdiri ularni tashvishga soladi. Boylik orttirishga intilmaydigan inson bo'lsalar-da, hech vaqt pulga zoriqmaydilar. Hayotda baxtning

o'zi ularni izlab topadi.

Bu muchal vakillaridan ajoyib faylasuf, olim va rahbarlar yetishib chiqadi. Mantiqan o'ylab ish

tutganliklari bois ham ular-da rahbarlikka moyillikni ko'rish mum-



kin. Shuning uchun nazorat ishlari la ularga teng keladigani yo'q.

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA tarjimas.

«RAQIBIMNI HURMAT QILISANI O'RGANDIM...»

Yaqinda tahririyatimizda taniqli bir sportchi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvdan so'ng uning ishtirokchilari bilan yaqindan tanishdik. Turli yoshdagi o'g'il-qizlar o'zlari qiziqqan sport turi, bu borada qo'lga kiritayotgan yutuqlari haqida to'liqlanib, bir-birlariga gal bermay gapira ketishdi. Lekin ulardan biri gapga qo'shilmay, bir chekkada jimgina turardi. Bu o'smir diqqatimizni tortdi:

– Siz nimaga jim turibsiz?–deya davraga chorladik uni.

– Murabbiyim Nafisa Pirnazarova, jim yurgan uzoqqa boradi, deya nasihat qiladilar bizga doimo. Ularning gaplariga quloq tutib hozirgacha kam bo'lganim yo'q,–deydi o'zini Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 24-maktabning 10-sinf o'quvchisi Zoir Xoliqulov deya tanishtirgan yigitcha.

– 4 yildan buyon sportning karate-do turi bilan shug'ullanib kelyapman. Ustozimizdan, shuningdek, raqiblarimdan ham turli usullarni o'rganib boryapman. Avvallari tatamiga chiqqanimda raqibimni nazarga ilmasdim. Bir kuni o'z vaznimdagi jussasi kichkinagina bir bola bilan bellashdim. O'zinga ortiqcha baho berib yuborgan ekanman, mag'lub bo'ldim. Shundan so'ng, raqibimni hurmat qilishni o'rgandim...

Zoirjonning gaplarini tinglab, sport insonlarni nafaqat jisman, balki aqlan ham sog'lom qilib tarbiyalashiga amin bo'ldik.

Sog' yurak – tog' yurak



O'KSIK KO'NGILLAR KO'TARILDI

3 - dekabr kuni nishonlaganimiz – «Nogironlar kuni»ga bag'ishlangan tadbir va tantanalar yurtimizda hanuz davom etyapti. Kuni kecha Mirzo Ulug'bek tumani Xalq Ta'limi bo'limi, «Kamolot» YIH bo'limi hamda madaniyat va sport bo'limi hamkorligida «Umid» sport majmuasida shu sanaga bag'ishlangan yana bir ajoyib tadbir bo'lib o'tdi. 101- hamda 105-maktab-internatlari o'quvchilari orasida sport musobaqasi o'tkazildi. Sportning voleybol va qo'l to'pi turi bo'yicha o'tgan qizg'in bahslarda 101-maktab o'quvchilarining qo'li baland kelgan bo'lsa, tennis musobaqalari bo'yicha ustunlik 105-maktabning umidli sportchilariga nasib etdi.

Tumandagi havaskor bolalar ijrosidagi konsert dasturlari ko'ngli o'ksik bolajonlarga ko'tarinki ruh bag'ishladi. Ayniqsa, Farg'ona viloyatining «Vodil chinori» sirk guruhi ijrosidagi tomoshalarni yig'ilganlar zo'r qiziqish bilan tomosha qilishdi. G'oliblarga tuman «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi va «Kamolot» bo'limi tomonidan qimmatbaho sovg'alar ulashildi.

Shu tariqa imkoniyati cheklangan bu bolajonlarning ko'ngli biroz bo'lsa-da, ko'tarildi.

Nargiza JALILOVA.

Gavdasiga qarab, unga 15-16 yosh berishingiz tayin. Lekin polvongina bu bola 14 yoshda, u ham Sobir Rahimov tumanidagi 24-maktabning 8-sinfida o'qiydi. O'zi ham bo'lajak polvonlardan. Mana olti yildirki, sportning kurash turi bilan shug'ullanib, murabbiysi Osiyo Ulug'bek Topilboyevdan saboq olib kelyapti. bo'lgani uchun ham doimo o'zidan katta kurashadi. Hozircha ularning aksariyatini yutib kelyapti.

Abdurasuldan sport bilan shug'ullanishi uchun yara-tilayotgan shart-sharoitlar haqida so'raganimizda, u quyidagilarni gapirib berdi:

– «Nazarbek»–

Mashg'ulot kiyimlarda esa

dagi sport majmuasiga qatnayman.

o'tadigan zalimizning sovuqligi bois, qalin

mashq qilishga majburiy. Biroz mashq qilgach

terlab ketib, yechinamiz. Bunday holda shamollab

qolishimiz hech gapmas. Yaqinda Sag'bonga ko'chib

o'tdik. Biroz uzoq bo'lsa-da, sharoitlari yetarli bo'lmasa-

da, baribir «Nazarbek»ka qatnayapman. Chunki murabbiyimni

juda yaxshi ko'raman-da. Qolaversa, o'rgangan joyim, do'stlarim

ham ko'p... – deya umid qildik.

Abdurasulning so'zlarini o'qib, mutasaddi amakilar shoyad «Nazarbek»dagi sport majmuasiga ham bir bor bosh suqishsa...

Ma'mura MADRAHIMOVA.

Onalar yozadi

ANDIJON

(Andijon voqealarida qahramonlarcha halok bo'lgan kapitan Bahrom Jo'rayev xotirasiga)

Vatan tandagi qondir,
Vatan uyg'oq vijdondir.
Vatan ko'zdagi ziyo,
Vatan butun iymondir.
Vatan – Bahrom ko'rsatgan,
Jasoratdir mangulik.
O'qlarga qalqon yurak,
Xalq deb, jondan kechgulik.
Unutmas O'zbekiston,
Mardi-maydon o'g'lini!
Gard yuqtirmay saqladi,
Xalq sha'ni, yurt tug'ini.
Chinordek mangu erur,
Sening umring ham, Bahrom!
Vatan, deb shahid bo'lding,
Jannatda topgin orom.

Zamira SAFAROVA.

NIYAT

Shijoat bor qoningda,
Iymon payvand joningga.
Jasur o'g'lonlaring bor,
Qalqon sharaf-shoningga.
Hayot tinch, iqbol yordir,
Intilgan topar imkon.
Ajdodlar ruhi qo'llar,
Bu zamin jannatmakon.
Qanoat bor qoningda,
Sabr payvand joningga.
Farzanding kamolin ko'r,
Loyiq bergan noningga.
Shukronalar ayt, xalqim,
Rizqi daryo, ulug'im.
Yorug' tonglar doyasi,
Qadamlari qutlug'im.

buncha mamlakatlar orasida g'olib bo'lish oson emasdi. Ammo umidsizlanmay, maqsad sari intildik. Natijada, 2000 - yil g'olib bo'lib, Yaponiyaning 500 ming dollarlik grantini yutib oldik. Hozirda bunday Planetariy O'rta Osiyo bo'yicha bizning mamlakatimizdagina mavjud. Aziz bolajonlar, hademay qishki ta'til kunlaringiz boshlanadi. Fursat topib, Planetariyga tomoshaga kelsangiz, hecham afsuslanmaysiz. Ming bora eshitgandan ko'ra, bir bora ko'rgan afzal, shunday emasmi?

Munajat SADRIDDINOVA.

«PLANETARIY» NIMA DEGANI?

Siz madaniy hordiq chiqarish uchun teatr, kino, sirk, muzeylarga ko'p borgansiz. Planetariyda ham madaniy hordiq olish mumkinligini bilasizmi? To'g'ri, orangizda planetariy nima ekanligini bilmaydiganlar ham topilishi mumkin.

Planetariy maxsus apparat yordamida yulduzlarni kuzatish va ular haqida ma'lumot olish mumkin bo'lgan shinam maskan. Abdulla Qodiriy nomli bog'ning yonginasida planetariyning yangi binosi qad ko'tardi. Ushbu binoning ikkinchi qavatida sirk maneji kabi aylana shakildagi maxsus zal bo'lib, o'rindiqlar ham xuddi shunday joylashgan. Birgina farqi shundaki, tomoshani pastga qarab emas, osmonga qarab kuzatasiz. G'aroyib, sirli musiqa ostida yulduzlar haqida ma'lumot olish va ularni kuzatish hamma uchun maroqli bo'lsa kerak.

O'RTA OSIYODA YAGONA

Butun yulduzlar gallaktikasini tomosha qilish imkoniyati O'rta Osiyo davlatlari orasida O'zbekistongagina nasib etgan. Toshkent shahar planetariysi rahbar o'rinbosari Rahmatova Nasiba G'aniyevna bu maskan haqida quyidagilarni gapirib berdilar:

– Yodingizda bo'lsa, Abdulla Qodiriy nomli bog'ning ichida planetariy bo'lardi. U 1987- yilda yong'in tufayli qarovsiz holga tushib qolgandi. Uni oyoqqa turg'azish uchun ko'mak so'rab juda ko'plab firma va tashkilotlarga murojaat qildik. Hamma yerda, pulini to'lasangiz kelib qurib beramiz, degan bir xil javob bo'ldi. Ko'pgina firma va tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab ko'rdik. Ammo bu ham samara bermadi. O'sha yillari yurtimiz endigina oyoqqa turayotgan paytlar edi. Shuning uchun bunday katta mablag'ni to'lash og'irlik qildi. Grant nima ekanligini esa ko'pchiligimiz hatto bilmasdik ham. Keyin grant haqida qiziqib, uning shartlari bilan tanishib chiqdik. So'ngra, o'z dasturimiz bilan O'rta Osiyoning o'ttizga yaqin mamlakatlari ishtirok etayotgan tanlovda qatnashdik. Albatta



Sayohat

Aziz qizlarjon, sahifalarimizdan sizlar uchun ham joy ajratdik. «Kichik bekalarga» nomli ruknimiz orqali sizga uy tutish, tikish-bichish, supur-sidir, pazandalik sirlarini o'rgatib boramiz. O'rgatish bizdan, o'rganish esa sizdan.

BAYRAM DASTURXONIGA

Kelinglar, eng avvalo bayram uchun ajoyib va ta'mi og'zingizda qoladigan shirinlik o'rganamiz. Buning uchun sizga:

200 gr. margarin

6 ta tuxum

1 st. qaymoq


3-4 st. un

1 st. shakar

1 st. yong'og'

1 banka quyultirilgan sut kerak bo'ladi.

Eng avvalo tuxumni oqini ajratib olasiz. Margarinni qirg'ichdan o'tkazib, ustiga tuxum sarig'i, qaymoq, un solib yumshoq xamir qorasiz va 1-2 soatga tindirishga muzlatgichga qo'yasiz. Tingach, uchga bo'lib, har bir bo'lakni alohida yoyib gaz patnisiga joylashtirasiz. Ajratib olingan tuxum oqiga shakar qo'shib, ko'pirtirasiz va uni ham teng uchga bo'lib, xamir ustiga bir tekis surib chiqasiz. Ustidan maydalangan yong'og' sepib, gaz pechida o'rta olovda, oltinrang tusga kirguncha qizartirib olasiz. Pishgan 3 ta bo'lakni oralarga 3 soat suvda qaynatilgan quyultirilgan sut surib, ustma-usta taxlaysiz va eng ustini didga ko'ra bezatib olasiz. Xohlasangiz kokos qirindilari, maydalangan yong'og' yoki qirg'ichdan o'tkazilgan shokolad bilan bezatishingiz mumkin. Bu shirinlik bayram dasturxoningiz ko'rki bo'ladi. **Yoqimli ishtaha!**



ARCHANGIZNI O'ZINGIZ BEZATING...


Yangi yil archasiga do'konlardan o'yinchoq sotib olish yaxshiku-ya, ammo ularni o'z qo'lingiz bilan yasab, uka-singillaringizga sovg'a qilishga nima yetsin, to'g'rimi?

Men sizlarga oson va juda oddiy, lekin archa uchun haqiqiy bezak va bayram sovg'asi bo'la oladigan ayrim archa o'yinchoqlari yasashni o'rgatmoqchiman. Buning uchun ozgina mehnat va qunt qilsangiz kifoya.

1. Hamma ham uyida gugurt ishlatadi. Ana shu keraksizdek tuyulgan gugurt qutichalarini olib, ustini oq yoki yaltiroq qog'ozlar bilan o'rab, bir chetiga igna yordamida ip o'tkazib oling. Ustki qismiga o'zingiz xohlagan suratni chizing. Yoki 4-5 ta gugurt qutichalarini turli suratlar bilan bezab, igna yordamida bir-biri bilan biriktiring. Bu sizga haqiqiy bayram shodligini beradigan archa o'yinchoq. Chunki uni o'zingiz yasagansiz-da.



2. Biror taomga tuxum ishlatishdan oldin, tuxumni yaxshilab yuving va igna yordamida ikki chetidan teshib, ichidagi masalliqni idishga to'kib oling. Unga qog'ozdan yasalgan qalpoqcha kiygizing. Xohlasangiz qorbobo ko'rinishiga, xohlasangiz masxaraboz, Bura tino ko'rinishlariga keltirib oling va bo'yoq yordamida ko'z, burun, og'izlar chizib chiqing.



Mana bu rasmdagidek archa o'yinchoq tayyor.

Bayramni qanday nishonlasangiz, yil davomida uyingizda ham, o'zingizda ham mana shu kayfiyat hukmron bo'ladi. Shunday ekan, bu yilgi yangi yilingiz siz uchun eng YAXSHI YIL bo'lsin!

Kichik bekalarga

HAMMA ISHDA SARISHTA BO'LING!



ARZANDAMAS, PAZANDA..

Kichik bekajon, yangi yil dasturxoniga qanday salatlar tayyorlasam ekan, deb o'ylab o'tiribsizmi? O'ylashning hojati yo'q. Men sizga tez va oson tayyorlanadigan salatni o'rgataman. Buning uchun sizga quyidagi masalliq kerak bo'ladi:

200 gr. dudlangan tovuq go'shti

4-5 dona bodring

200 gr. tuzlangan jo'xori donachalari

200 gr. mayonez

Tayyorlanishi:

Dudlangan tovuq go'shti va bodringni mayda somoncha shaklida to'g'rab, ustiga tuzlangan jo'xori donachalari solib aralashtirasiz. Salatni solgach, ustidan bir tekis qilib mayonez quyaysiz. Parraklangan bodring bilan bezatishingiz mumkin. Bu salat oila a'zolaringizga ham manzur bo'ladi.



idishga

Ustini ko'katlar va

parraklangan bodring bilan bezatishingiz mumkin. Bu salat oila a'zolaringizga ham manzur bo'ladi.



CHOYNAK UCHUN «QISHKI KIYIM»



Ayni yangi yil tomoshalarini ko'rish uchun ekran qarshisiga o'tirganingizda, tez-tez choyni yangilab, issiq choy olib kelish, qiziq tomoshalardan qolib ketish alam qiladi, albatta. Uyning issiqligiga qaramay, damlagan choyingiz tez sovub qolishi tabiiy. Chunki hozir

qish fasli-da. Choyingizni issiq saqlash uchun esa sizga choynak yopqichi va tagligi kerak bo'ladi. Uni qayerdan olsam ekan, deb bosh qotirib o'tirmang. Uyingizda oyingiz yoki o'zingiz tiktirgan ko'ylaklardan ortgan matolar yig'ilib qolgan bo'lsa kerak-a? Ana shu qiyqimlardan chiroyli yopqich va taglik tikishingiz mumkin. Buning uchun tikuv mashinasining ham hojati yo'q. Muhimi, qo'l chokingiz ravon va tekis bo'lsa kifoya. Rasmda ko'rsatilgandek qog'ozdan andoza chizib, mato ustiga qo'yib bichib oling. Yopqichdan 4 ta, taglikdan 2 ta bo'lsin. Ko'rpa-to'shaklardan ortgan paxtadan kerakli miqdorda olib, yopqich orasiga qo'ying va bir tekis qilib bilintirmay tikib chiqing. Yopqichlarni bir-biriga ulab, tikib chiqing. Choynak tagligi orasiga ham yupqa qilib paxta solib, rasmda ko'rsatilgandek chetlarini tikib bo'lgach, o'rtasini o'zingiz xohlagan shaklda tiking. Qarabsizki, choyningiz uchun «qishki kiyim» tayyor.

Bu ham ishingizni yengillashtiradi, ham uyingizda bekor yotgan matolarni o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Qo'lingiz gul bo'lsa, tikkan choynak yopqich va tagligingizga o'zingiz istagancha bezak berishingiz mumkin.



Foydali maslahatlar

Oshxona pichoqlari vilka va qoshiqlar bilan birga saqlansa, tez o'tmaslashib qoladi.

Toza yuvilmagan idish taomning sifatini buzish bilan birga organizmga mikroblarni olib kirib, salomatlikka zarar yetkazadi.

Bodring, rediska, pomidor, sabzi kabi sabzavotlarni po'stlog'ini artmay iste'mol qilish kerak. Shunda ular tez hazm bo'ladi va organizmga ko'proq foyda beradi.

Jig'ildon qaynaganda sabzi, rediska, turp kabi sabzavotlar va olma yeyish foydali.

Sabzavotlarni namakobda saqlasangiz so'limaydi.

Piyoz yoki baliq kesilgan pichoqni hidini ketkazish uchun issiq suvda yuvib, tuz bilan yaxshilab ishqash kerak.

So'lib qolgan oshko'klarni sirkali suvga botirib qo'ysangiz, asl holiga qaytadi.

Anor va kartoshkadan keyin qo'lingiz qorayib qolmasligi uchun darhol sovuq suvda sovunlab yuving.

Sahifani Ma'sudabonu VOHIDOVA tayyorladi.

She'r? She'r! She'r...

**QORBOBONING
JAVLONGA DEGANI**

Kirib keldi yangi yil,
Quvonch olib yaxshi yil.
Bezatildi archamiz,
Shod-u xurram barchamiz.

Mehmon bo'ldi Qorbobo,
Oppoq soqol chol bobo.
Sovg'alarni ulashdi,
Jilmayib xayrlashdi.

Keta turib o'rmonga,
Shivirladi Javlonga:
— O'g'lim, yaxshi o'qi, deb,
Yur vaqt qadriga yetib.

Muniraxon
YO'LCHIBOYEVA,
Andijon viloyati,
Oltinko'l tumanidagi
25- o'rta maktabning
7-«B» sinf o'quvchisi.

BEZATILGAN HAMMA YOQ

Yangi yilning shodligi makon etar o'lkamiz,
Qorbobo-yu, Qorqizni chorlab bizlar kutamiz.
O'rtadagi ko'k archa atrofida shaylanib,
Yangrar qo'shiq, she'rimiz qish madhiga aylanib.
Bezatilgan hammayoq, charaqlar chiroqlar ham,
Shodon kulgu yarashar bayramda sizga har dam.
Sovg'alari behisob Qorbobo-yu Qorqizning,
Ulashganda bir ko'ring quvonchimizni bizning.

Elbekjon RO'ZIMATOV,
Nafis san'at litseyining 6- «A» sinf o'quvchisi.

OMAD DEGANI

O'lkamizda qish. Yilning so'nggi kunlari. O'quvchilarning II choragi tugallanishi, talabalarning birinchi yarim yillik o'quv imtihonlari, ishxonalarda esa yakuniy hisobotlar. Demak, yumushlar qaynar xumchadek qaynaydigan davr..

Men ham o'qish, imtihon tashvishlari bilan shoshilib ko'chaga chiqdim.

Bekat to'la odam, tiqilinch avtobusga chiqolmaganim alam qilayapti. Darsga kech qoladigan bo'ldim-da. Navbatdagisi qachon keladi?... O'liftalik qilib, yupungina kiyingan ekanman, qo'llarim sovuqda muzlab qolay deyapti. Domlamga nima desam ekan-a, yaxshisi tish shifokoriga borgandim, deymen. Yo'q, bo'lmaydi, lunjim shishmagan, yolg'onim bilinib qoladi. Iya, ana avtobus. Odam tirband. Bir amallab chiqib oldim. Voy anavi o'quvchini, oyoq qo'yishga joy yo'g'-u, daftaridagi mavzuni o'qib ketayapti. Tavba, shunday shovqinda-ya. Uyida dars tayyorlasa bo'lmaydimi? Yoki, hamma meni «a'lochi» deb o'ylasin, deb jo'rttaga qilyaptimi? Bekatga ham yetib keldim. Eh, anavi talaba qiz bekorga chopib ketayapti, baribir menga o'xshab darsga kech qoldi. Ta'lim maskanimizga kiraverishda qorovulni uchratdim. Hozir darvozadan kiritmasdan, quvlaydi. Omadim bor-da, onaxon dugonasi bilan so'rashayotganida, shamolday uchib o'tib ketdim.

Sinfimiz eshigini sekin ochdim-da, mumkinmi, haligi, haligi, qo'lim, yo'q-yo'q, oyog'im, nimaydi, tishim og'rib, kech qoldim, uzr domla, dedim zo'rg'a ming'illab.

Gurros kulgu ko'tarildi.

Anorday qizarib boshimni ko'tardim-u, domlaning joyida yo'qligini ko'rib, oyoqlarimga mador kirdi. Ko'rdingizmi, omad degani shu bo'lsa kerak-da, domlaning o'zlari darsga kelmabdilar.

Shahnoza JALILOVA,
Toshkent Aloqa kollejining II-bosqich talabasi.

XALATIMDEK OPPOQ QOR

Xalatimdek oppoq qor,
Yog'ishningda zo'r viqor.
Meni maftun etuvchi,
Qorjon, sening sehrling bor.

Daraxtlarga oq zardan,
Kiyintiribsan «chopon».
Mening esa sochimga,
Taqib ketding oq marjon.

Xalatimdek oppoq qor,
Bu qalbim sendayin pok.
Kasbim esa - shifokor,
Bu nomga tushirmam dog'.

Gippokrat qasamini,
Har lahzada yod etgum.
Xasta bemor qalbini,
Davolab, ham shod etgum.

Xalatimdek oppoq qor,
Yog'ishningda zo'r viqor.
Sochim qordek bo'lsa ham,
Mehrim sengadir bemor.

Qorjon, sening mehringga,
Qonsin bu kun ona Yer.
Shuning uchun o'ynoqlab,
Marmar qorim yog'aver.

QISH BIR QADAM, BIR QADAM BAHOR...

Men tog'daman, atrofim ko'm-ko'k,
Hayratlanib boqaman har yon.
Bir tomonda o'rmon, maysalar,
Baland-baland qoyalar bir yon.

Bir tomonim qahraton qishdir,
O'rtaliqda bitta daryo bor.
Kimlarni bu hayratga solmas,
Qish bir qadam, bir qadam bahor...

Salomat G'OYIPNAZAROVA.

XAYOL

Oppoq, momiq qor yog'di,
Bugun kechasi.
Xursand bo'ldi bolalar,
Barcha-barchasi.
Aziz chiqdi ko'chaga,
Chanasin olib.
Uning ortidan esa,
Dangasa Tolib.
Ahmad, Ahad ham chiqdi,
Yugurib, shoshib.
Qor o'yinin boshlashdi,
Zavqlari oshib.

Ibrohim YO'LCHIYEV,
Andijon viloyati, Buloqboshi
tumanidagi
25 - maktabning
6 - «A» sinf o'quvchisi.

ONA DIYORIM

Sen mening maskanim — O'zbekistonim,
Mening muqaddas ona tuprog'im.
Ta'rifga hojat yo'q, ojiz qalamim,
Senga qalqon o'zim, chiqquncha jonim.

Ulug'lashga aslo topolmadim so'z,
Muqaddam tarixing, o'tmishing cheksiz.
Senga tik qarasa begona bir ko'z,
Yakson qilgum albat bir zumda so'zsiz.

Bag'ri keng diyorim — O'zbekistonim,
Yashnayver to'abad bog'-u bo'stonim.
Mag'rur boshing egma, buyuk Turonim,
Dunyoda yagona — ona diyorim!

Sabohat RAHIMOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Amudaryo tumanidagi
15-maktabning
8-sinf o'quvchisi.

QORCHA — ARCHA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda saxiy Qorbobo va yovuz Yalmog'iz kampir yashagan ekan. Qorboboning bag'ri butun, Qorqiz va Qorcha ismli qizlari, juda ham ko'p do'stlari bor ekan. Yalmog'iz esa ko'ngli kirligi, niyati yovuzligi uchun yolg'iz yasharkan. Farzandlari ham, do'stlari ham yo'q ekan. Shuning uchun u doimo Qorboboga hasad qilarkan...

U bir kuni o'rmonda Qorqiz bilan Qorchani yolg'iz uchratib qolibdi. Niyati buzilib, ularni daraxtga aylantirib qo'ymoqchi bo'libdi. Yalmog'izning bor sehri ko'zlarida ekan. Jodu qilayotgan paytda kimda-kim uning ko'zlariga tik boqsa, sehlaniib qolarkan. Buni yaxshi bilgan qizlar Yalmog'izning ko'zlariga qaramaslikka harakat qilishibdi. Lekin jajji Qorcha chidab turolmabdi: Yovuz kampirning rang-barang tusda tovlanib, o'zidan nur taratayotgan ko'zlariga qarabdi-yu, bir zumda yam-yashil daraxtga aylanib qolibdi. Qorqiz esa bir amallab qochib qutulibdi va bo'lgan voqeani dadasiga so'zlab beribdi.

Bundan xabar topgan Qorbobo, qizimni asl holiga qaytar, deya Yalmog'izga yaxshi gapirib ham ko'ribdi, do'q-po'pisa ham qilibdi, foydasi bo'lmabdi...

Qorbobo qizi aylanib qolgan daraxtni Archa deb nomlabdi. Qorbobo va Qorqizning Archani yaxshi ko'rishlari, uning atrofida qo'l ushlashib aylanishlari ham shundan ekan.

Shahnozabonu ABDIRIMOVA,
TDTI qoshidagi
iqtisodiyot
gimnaziyasining
6 - «A» sinf o'quvchisi.

**BIR KUN ALBAT
QAYTADI**



Siz doimo ota-ona,
Xizmatiga shay turing.
Bab-barobar odimlamang,
Bir qadam ortda yuring.
Ota-onang hurmat qilsang,
Donishmandlar aytadi:
«O'g'il-qizdan bir kun albat,
U o'zingga qaytadi».

Ma'mura AHMEDOVA,
Toshkent shahar, Mirzo
Ulug'bek tumanidagi
275 - maktabning 5 - «V» sinf
o'quvchisi.



TANHO

Nechun bilmam, xayol parishon,
Yuragimda qayg'uli armon.
Sukutimni tark etib bir on,
Qidiraman biron-bir darmon.
Sababini bilolmay men lol,
Qalbim o'rtar qandaydir savol.
Bu savolim: «Sevasanmi sen?»
Yoki sevib qolgan faqat men?»
Yo'q, bundayin bo'lmaydi aslo,
Axir dunyo emas bevafo.
Ishonaman, sen ham sevasan,
Axir sevib bo'lmaydi tanho.

Dilorom UMRZOQOVA,
Namangan Politehnika instituti
qoshidagi Akademik litseyning
2-kurs talabasi.

BU QANDAY TUYG'U?

Qadrli tengdoshim, ko'zingizga bu dunyoni kamalak rangida jilvalantirib ko'rsatadigan, har kuni turli ertaklar aytib, sizni ulug'likka yetaklaydigan tuyg'u bu MUHABBATdir. Xayolan unga erishish, u bilan yashash va suhbatlashishning gashti bo'lakcha. Xo'sh, sevgi, muhabbat deganda Siz nimani tushunasiz?

Hozirgi kunda tengdoshlarimiz orasida, anavi qiz yoki yigit chiroyli, badavlat oilaning farzandi ekan, men uni sevib qoldim, degan havoyi gaplarni eshitishga quloqlarimiz ancha o'rganib qoldi. Bundan chiqdi, insonning tashqi ko'rinishiga, boyligiga qarab sevis kerak ekan-da. Sevis, sevilish tashqi ko'rinishga emas, balki insonning ichki dunyosiga ham bog'liq emasmi? Menimcha, bunday fikrlar bilan biz «sevgi» degan oliy tuyg'uni oyoqosti qilgan bo'lamiz. Muhabbat deganda shunday bir ajib tuyg'uni his qilamizki, uni ta'riflashga tilimiz ojizlik qiladi.

Men muhabbatday oliy tuyg'uning ta'rifini mana bu satrlar orqali bayon etmoqchiman:

Hayajon to'lqini, hasrat, tabassum,

Shirin xayollari jon olar ma'sum.

Goho yuraklarda isyon qilar u.

Muhabbat atalmish bu oliy tuyg'u!

Shunday ekan, har kimga ham nasib etavermaydigan bu oliy tuyg'uning qadriga yetaylik. Chunki u bizni ezgulik sari yetaklaydi. Insonlar orasidagi mehr rishtalarini mustahkamlaydi.

Maftuna ESANOVA,

Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi
301 - maktabning 11 - sinf o'quvchisi.

SEVGI

Qalbimni timdalab, o'rtagan sevgi,
Dunyoni ko'zimga tor etgan sevgi.
Qalbimni kuldirib, keyin kuydirib,
Cheksiz hijronlarga yor etgan sevgi.
Seni deb yashadim, qalbimni berdim,
Seni deb o'zimni o'zim unutdim.
Yo'limdan adashdim shu sevgini deb,
Birgina men seni intizor kutdim.
Qani xayoldagi shahzodam mening,
Mening tuyg'ularim xor etgan sevgi.
Endi menga armon tunlari hamdam.
O'ziga shunchalar zor etgan sevgi.
Gunohkor aslida senmi yoki men,
Anglay olmadikmi bir-birimizni?
Yo'limiz tutashmay, dilda saqladik,
Hech kimga aytmagan qalb sirimizni.
Yulduz YUSUPOVA.

**Maktabdagi muhabbat**

Bu yil omad kulib boqib, litseyga o'qishga kirdim.

Juda xursand edim. Litseyimiz o'quvchilari orasidagi Aziz va Farruh ismli ikki do'st husnda ham, aqlda ham boshqalardan ajralib turishardi. Barchamiz ular bilan samimiy do'stlashib oldik.

Oradan ikki-uch oy o'tgach, ulardan biri – Farruhning meni sevib qolgani haqida mish-mish tarqaldi.

Bir kuni Aziz ohista yonimga kelib, bechora Farruh seni qattiq sevib qolibdi, unga aytadigan gaping yo'qmi? - deb so'radi.

– Men bu yerga sevisish-sevilish uchun emas, o'qish uchun kelganman, -deya aniq va lo'nda qilib javob qaytardim.

«AQLIMDAN O'RGILAY...»

– Voy, Nilu, shunday yigit sevib qoladi-yu, sen noz qilyapsanmi? Hech bo'lmasa, uyingga kuzatib qo'yishiga qarshilik qilma, -deya holi-jonimga qo'yishmasdi dugonalarim.

Farruhning o'zi esa ortimdan yurishni kanda qilmasdi. Bir kuni uni yolg'iz uchratib qoldim va dilimda borini to'kib – soldim.

– Farruh, men siz bilan shunchaki do'stona munosabatda bo'layotgandim. Muhabbat haqida o'ylashga biz hali yoshlik qilamiz, nazarimda...

Shu-shu u meni ortiq bezovta qilmay qo'ydi.

Bir kuni Farruhni parallel sinfda o'qiydigan bir qiz bilan gaplashib turganini ko'rdim. Oradan bir haftalar o'tgach uni boshqa qiz bilan yetaklashib yurganiga o'zim guvoh bo'ldim.

Keyin bilsam, Farruh shunaqa yengiltabiatroq bola ekan. Qizlarning his-tuyg'ularini oyoqosti qilishga ustasi farang ekan. Uning soxta sevgisini rad etganimdan xursand bo'lib, aqlimdan o'rgilay, deb qo'yaman.

NEGADIR...

Derazam ortidan boqadi hilol,
Ko'rganday bo'laman sening yuzingni.
Bemor odam kabi yuribman behol,
Sog'indim, «sevaman» degan so'zingni.

Begonalardekmi bugun ikkimiz,
Yodga ham olmaymiz bir-birimizni.
Nogahon ro'baro' kelib qolsak ham,
Bir tashlab qo'ymaymiz ko'z qirimizni.

Mayli, baxtli bo'lg'in, baxtingni ko'ray,
Sen baxtiyor bo'lsang, baxtliman men ham.
Seni sog'inganda birgina yupanch,
Suratingdan taskin olaman shu dam.

Osmonda porlaydi ikkita yulduz,
Bir-biridan ayri ketdi negadir.
Biri yiroq ketdi, birisi so'nib,
Shamdek ado bo'lib bitdi negadir.

Umida NURADDINOVA.

Nilufarxon BAHROMOVA,
Nafis san'at litseyi o'quvchisi.

**YANA MEHMON
BO'LADIMI, YO'QMI?..**

Maktabdagi muhabbat. Uni har kim har xil tushunadi. Kimdir uni bolalarcha o'tkinchi bir havas deydi. Boshqalar esa uni jiddiy qabul qiladi. Men bu pok, beg'ubor va samimiy tuyg'uning qadriga yetish, ardoqlash lozim, deb o'ylayman. Qalblarga bir boragina mehmon bo'ladigan sevisish-sevilish baxtiga keyinchalik yana musharraf bo'lish nasib etadimi, yo'qmi?!

Maktabimizni ikki yil avval bitirib ketgan ikki sevisishganlarni bilaman. Ularning sevgisi maktab davridanoq bir sinovdan o'tgandi. Bir-birlarini qattiq sevib qolgan Jamshid va Sarvinozga ko'pchilik tengdoshlarining havasi kelardi. Sarvinozning dugonasi Dildora esa ularga hasad qilar va oralarini buzish niyatida yurardi. Chunki Jamshidni o'zi ham sevardi-da...

Bir kuni u bu shum niyatiga erishdi ham. Sarvinoz haqida turli ig'volar to'qib, Jamshidga aytib berdi. So'zlarining rostligiga ishonirish uchun hatto qasam ham ichdi.

Jamshid uning gaplariga ishonay desa, Sarvinozdan bunday bevafoqlikni kutolmasdi, ishonmay desa, Dildora qasam ichib turibdi. Ko'ngil dushman, deganlari rost ekan, uning Sarvinozdan ko'ngli qoldi. Dildora esa fursatni boy bermaslik uchun Jamshidning yo'lida hozir-u nozir bo'laverdi. Shundagina Jamshid uning asl maqsadini tushunib qoldi va yetkazgan ozori uchun Sarvinozdan uzr so'radi...

Yaqinda ular oila qurishdi va baxtli hayot kechirishyapti.

Bu sevisishganlar qissasi maktabdagi ilk muhabbatga bo'lgan ishonchimni yanada oshirdi.

Gulnoza MUHAMMEDOVA,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi
X. Abdullayev nomli 2 - o'rta maktabning
10 - «A» sinf o'quvchisi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Bu hafta men uchun katta yo'qotish bo'ldi. Yuragim huvillab, shaharga qaytdim. Oqtoshni mashina urib yuborganini dala-bog'dagilar eshitishibdi. Poyezd shaharga yetib kelguncha qo'shnilarim achinib, itimni maqtab ketishdi.

— Bir kuni, — deya suhbatga qo'shildi Rahimjon Otayev bilan shaxmat o'ynab kelayotgan Shodmonbek raqibining «ot»i bilan chakkasini qashlab, — bir o'zim edim, ko'chamizga burilsam, yo'lli o'rtasida eshshakdek it turibdi-da. O'zi itni o'ngindamas, tushimda ko'rsam, labimga uchuq tushib ketadi. Nimagadir odamlar qo'rqishmaydi, men o'lgudek qo'rqaman. Haligi bahaybat itni to'parasida taxta bo'b qopman. U bo'lsa, menga tikilganicha qo'ngayib o'tiribdi. Oldinga yurishni-ku o'ylamayman, orqaga bir qadam tashlashga oyog'im qaltiraydi. Bolaligimda o'qiganim yo'lbarsga salom berib, qutulib ketgan ovchi esimga tushib qoldi. Mayin, yumshoq ovozda dedim: «Xov-v-v... assalomu alayko'o'o'm, it aka, iltimos, yo'lni bo'shatsalar, kulbayi vayronaga kirib olsak» deyman, qani miq etsa. Bu yog'da yomg'ir degani urib yotibdi. Yomg'irpo'sh yo'q. Bez bo'lib qimir etmay turibdi, jonivor. Bilaman, itdan qo'rqan odamni itam yoqtirmasakan. Jig'iga tekkisi kelovrarkan. Birortasi kep qolarmikan deb u yoq, bu yoqqa alanglayman. Bunaqa yomg'irda kimam bo'chaga chiqardi? Shu payt desaylar qiziq ish bo'ldi. Tarixiy voqea desayam bo'ladi. Oqtosh paydo bo'lib qoldi. Ha, yonimdan lip etib o'tdi-da, haligi barzangi itga qarab ko'pammas, ozammas ikki marta akkilladiyov. Obbo, hali menga akkillaydigan sen bo'ldingmi, tirranha, deb tashlanib qolsa-ya, naq meniyam qo'shib piypalab tashlaydi-da, degan xayolda naq jonim manavi yerimga kelib qoldi, deb «ot» bilan kekirdagini ko'rsatdi Shodmonbek. E, ishonasizlarmi, yo'qmi, haligi it o'rnidan turdi-da, orqasiga qaramay jo'navordi. Oqtosh unga o'z tilida bir nimalar dedi shekilli-da. Shu-shu Oqtoshni yaxshi ko'rib qoldim, deya

Shodmonbek qo'lidagi «ot»ni xayol bilan kostyumini cho'ntagiga solib qo'ydi.

— Kechirib qo'yadilar, otimni manavi joyiga qo'ying, — deb taxtaning ustini ko'rsatdi Rahimjon.

Yengil kulgi ko'tarildi.

— Bir kuni, — dedi Muhammad Salom, — so'rida tushlik qilib o'tirgan edik. Ochiq darvozadan Oqtosh kirib kelib qoldi.

Birdan bizni ovqatlanib o'tirganimizni ko'rib, gunoh ish qilib qo'ygandek shartta orqasiga o'girilib, jo'nab qolsa bo'ladimi? Judayam

nafsi o'lik farosatli itidi-da.

— Oqtosh, Oqtosh... ey bag'ri tosh ukaginam, qayga ketding?

Qoqilmang deb sen bizlarga kunduzlari chiroq tutding, — deya

Shukur Qurbon she'r o'qib ketdi.

Men bo'lsam o'zimning toshmehrligimni kechirolmay ezilib o'tiribman. Jonivorga ketmon o'qtalguncha boshini silamaymanmi! Hech bo'lmasa, o't bo'lib yonayotgan vujudiga muzdek-muzdek suv sepmaymanmi! Ey, xom sut emgan banda, uni senga Xudo osmondan tashlagan edi-ku, qadriga yetmading-a! Shukur Qurbon haq, u bizga chiroq tutdi, biz uni ko'rmadik...


Shanba kelib, bog'-hovliga borguncha Oqtosh bir zum ham xayolimdan nari ketmadi. Nazarimda, uning barcha mo'jizakorligi tusining oqligida edi. Domla

OSMONDAN TUSHGAN OQTOSH

(yoxud jinlar olami)



Erkin MALIKOV



buva bekorga jinlarni haydab solish uchun oq itni tanlamaganlar. Shu oq rangli jonivorlarda biz bilmagan mo'jizalar bor. Bolaligimda eshitganman. Buvamlar Andijondan Qovunchi tomonlarga quloq qilinganda (aslida ular din peshvosi deb bola-chaqalari bilan Sibirga surgun qilingan, tasodif bo'lib, Qovunchida tushib qolishgan, buning hikoyasi boshqa) bir odamning uyida ijarada turishadi. Bu uyning oq iloni bor ekan. Adam va ammalarim qo'rqishsa, buvlamlar qo'rqmanglar, bu sizlar o'ylaganchalik ilonmas, jinlarning musulmoni, uning uyda bo'lishi juda yaxshi, kofir jinlarni yo'latmaydi, uni har zamonda bir kaft un bilan siylab tursangiz bo'ldi, deydilar. Oq ilon un yalagan kunlari hamma uxlaganda xonani aylanib chiqar, qusar, uy xushbo'y iforga to'lar ekan. Uydagilar

shunaqangi ajoyib-g'aroyib tushlar ko'rib uyg'onisharkanki... Xuddi gulzor ichida uxlab, gulzor ichida uyg'ongandek. Ifor hidi uyda anchagacha saqlanib turar, boshi og'rigan, tumov bo'lgan odam bu xonaga kirsam, dardi arib, vaqti chog' bo'lib chiqib ketar ekan... Oq ilonning ana shunaqa fazilatlar bor ekan. Bekorga oq ilon, oppoq ilon, oydinga yotganing qani, deb qo'shiq qilib aytishmas ekan-da.

Bir kuni toqqa charchoq yozgani chiqib, ajoyib manzaraga guvoh bo'ldim. Qachonlardir obod bo'lgan, bir chiroyli joy nimagadir qarovsiz ahvolga tushib qolgan edi. Eski o'choq, zanglab ketgan sim karavotlar. Qo'ra... Yana eng hayron qolarli joyi bilakdek buloq suvi otilib chiqib yotardi. So'qmoqning buloqqa borib qaytishidan bildimki, tog'liklar bu yerni eslaridan chiqarishmagan. Nimaga shunday joy tashlandiq bo'lib yotibdi? Bundan battar joylarga tog'liklar kapa tikishib, ot boqib, mol boqib, asalari uyalarini yoyib kun o'tkazishyapti. Bu yer eng so'lim, odamning suqi kiradigan joy-ku... Buloqdan suv ichib, salqinlab o'tirsam bir odam mesh ko'tarib kelib qoldi. Ajabo, shu joyni egasi ekan. Qiziqqanim uchunmi, hasrat qopi ochilib ketdi. Qimizchilik qilarkan. O'n beshta biyasi, yana qo'y-qo'zi, sigir degandek. Bu yerni tashlab ketishiga bir ko'ngilsiz voqea sabab bo'lgan ekan. Eng yomoni endi bu yerga birov kelib palak yozolmas ekan. Aytishicha, xotini har kuni kechqurun sirli chelakda qatiq uvitar ekan. Sut ertasiga qolsa achib qolarkan-da. Xotini erta bilan qatiqni suzma qilib qo'yay deb sirli chelakning qopqog'ini ochsa, qatiqning yuzidagi yog'ini bir nima yeb qo'rgan bo'larkan. Avvaliga e'tibor qilmabdi. Keyin eriga aytibdi. Er-xotinini rosa boshi qotibdi. Nima bo'lishi mumkin? Bu odam zotini ishi emas. Hayvon desa, qaysi hayvon sirli chelakning qopqog'ini ochib, qaymog'ini yalab, yana o'zidek qilib yopib qo'yadi? Eri oxiri o'g'rini poylashga tushibdi.

(Davomi bor.)

Izoh: Ayrim so'zlar shevada yozilgan.

BOLALARNING LABLARIDA KULGU O'YNASIN,

— deya qo'lidagi fotoapparatida bolajonlarni suratga olayotgan Mun akangizni maktablarda, kollej va litseylarda tez-tez uchratib turaman. Bu gal ularni Sobir Rahimov tumanidagi 165- maktab yonida bir guruh o'quvchilar davrasida uchratdim. Qo'llarida allaqaysi gazetani tutib olganicha, to'lib-toshib nimalarnidir gapirayapti. Yaqinroq borib qarasam, «Tong yulduzi» gazetasi ekan. Gaplariga quloq solsam, o'quvchilarni gazeta o'qishga, maqolalar, she'rlar yozishga, boshqotirmalar tuzib, surati bilan tahririyatga jo'natishga undayaptilar. Hamshaharimiz koreys millatiga mansub Mun Vyacheslav Uraldagi politexnika institutini tugallagan ekanlar. O'zbekiston mening, oilamning va uch nafar farzandimning ham vatanidir, deya quvonch bilan ta'kidlaydilar ular. Suratga tushirishdan tashqari she'rlar ham yozib turaman, lozim topsalaringiz, «Tong yulduzi» o'quvchilariga bir juft she'rimni tuhfa qilmoqchi edim, qo'shib qo'ydilar xayrlasha turib. Biz bajonidil rozi bo'ldik.

YANGI YIL

Yana kirib keldi yangi yil,
Oppoq qorga belab olamni.
Chor-atrofdan yangraydi bir sas,
Bayram zavqi chorlar odamni.
Yana kirib keldi yangi yil!



MAKTABIM — QADRDONIM

Qadrdonim mening maktabim,
Jonajonim mening maktabim.
Qancha yillar o'tsa ham nogoh,
Mehr bilan eslayman goh-goh.
Dilga yaqin o'sha devorlar,
Sinf, partam, yuzlab shiorlar.

Ustozlarim, ko'nglinga yaqin,
Uyg'otolgan yurakda chaqin.
Men ularga omad tilayman,
Baxt tilayman, shodlik tilayman.
Maktab, bag'ring quvonchga to'lsin,
Bolajonlar yayrashib yursin.

Mun VYACHESLAV.

SEZARGA UMR TILAGAN QUL

Yangi yil eng qadimiy bayramlardan hisoblanarkan. Arxeologlar Qadimiy Misr piramidalarini qazish vaqtida xum topib olishadi va unda «Yangi yilning boshlanishi» degan yozuv borligini ko'rishadi. Qadimiy Misrda yangi yil Nil daryosining to'lishiga qarab nishonlangan. Bu esa sentabr oylariga to'g'ri kelgan. Chunki Nil qirg'oqlaridan oshib, cho'lni suvga qondirgan va u yerda yil bo'yi bug'doy yetishtirilgan. Yangi yil bayrami arafasida Misr aholisi Amon va uning oila a'zolarining haykalchalarini qayiq'larga o'tqazib, bir oy mobaynida Nil daryosi bo'ylab sayrga chiqishgan. Qayiq'larda kuylab, hatto raqsga ham tushishgan ekan. Bir oy to'liq o'tgach, ular haykalchalarni joyiga, ya'ni, ibodatxonalarga qaytarib olib kelishgan.

Qadim rimliklar esa, eramizgacha bo'lgan davridayoq bir-birlarini yangi yil bilan qutlab, sovg'alar ulashishgan. Uzoq yillar davomida rimliklar Yuliy Sezar yangi taqvimni joriy qilgunga qadar yangi yilni mart oyining boshlarida nishonlashgan. Yangi taqvim joriy qilingach, bu sana 1-yanvar kuniga to'g'ri kelgan. Bu kun barcha rimlik zodagonlar qatorida qullar ham bayram qilishgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Yuliy Sezar bir quliga bayram kuni ozodlikni sovg'a qilgan. Buning boisi esa qul Sezarga eng uzoq umr tilagan ekan...

MUCHALIM - IT!

Itlar tabiatan sodiq do'st hisoblanadilar. Insonlar qadim-qadimdan itlar bilan ovga, uzoq yo'llarga o'tlanishgan. Qo'riqchi itlar hovlilarni, uy hayvonlarini qo'riqlashgan. Bora-bora itlar odamlar bilan birga



yashashga o'rganib qolganlar. Itni muchalga kiritilishi ham bejiz bo'lmasa kerak. Yangi yil It muchaliga to'g'ri kelgan. Bu yilni qanday kutib olish kerak, degan savolga javoblarimiz quyidagicha: Itlar hamma narsani oq-qora rangda ko'rsalar-da, olimlarning so'nggi tadqiqotlariga ko'ra, qizil rangli buyumlarni xush ko'risharkan. Shuningdek, osilgan turli o'yinchoqlar ham itlarga juda xush keladi. Shuning uchun ham uyingizga ko'proq qizil rangli sharlar yoki archa o'yinchoqlaridan osib qo'ying. Ammo yodingizda bo'lsin: aslo bog'lanadigan narsalardan foydalanmang, chunki zanjirga bog'langan itlarning holi o'zingizga ma'lum...

YANGI YIL QAYERDA QANDAY NISHONLANADI?

BOLGARIYA da yangi yil kirishiga 3 daqiqa qolganida chiroqlar o'chirilib, hamma bir-biridan bo'sa oladi.

RUMIYA da bayram dasturxoniga katta shirin-non qo'yiladi. Shirin-nonga tangalar, uzuklar, achchiq qalampir donachalari, chinni o'yinchoqlar solinadi. Agar undan uzuk chiqsa, bu yil davomida baxt kelishi alomati, achchiq qalampir esa, o'tgan yilning achchiqqina alamlari hisoblanarkan.

ITALIYA da yangi yilni kutmoqchi bo'lganlar deraza oynalari tagidan o'tishmasin. Chunki odamlar yangi yil kirishi oldidan eski buyumlarini tashqariga uloqtirishadi.

XITOIY da yangi yil 17-yanvar va 19-fevral kunlari orasiga to'g'ri keladi. Chunki bu oylar o'rtasida yangi oy chiqib, barchani birdek xursand qiladi. Xitoy aholisi ko'chalarga, xiyobonlarga turli rangdagi chiroqlar osib, yangi yilning yo'llarini yoritib qo'yishadi. Ularning fikricha, yangi yil atrofini yovuz ruhlari o'rab turarkan. Ba'zilar shuning uchun oynalariga qog'ozlar yopishtirib chiqishadi. Boshqalar esa ularni

KUBA da soatlar atigi 11 martagina bong urarkan. 12-bongga kelganda, soatlarga dam berilarkan. Yana bu yerda hamma idishlarni suv bilan to'ldirisharkan. Yangi yil kirish arafasida esa bu yil suvdek tinch va toza bo'lsin, degan niyatda suvni ko'chaga sepib yuborisharkan.

SHOPLANDIYA da yangi yil kirishdan oldin eshiklar keng ochib yuborilarkan. Buning sababi esa eski yilni chiqarib, yangi yilni kutib olish. Yana ular ko'cha bo'ylab qora saqich to'ldirilgan bochkalarni ag'darib yurisharkan. Ularning aytishlaricha, bu eski yildagi g'am-qayg'uni yoqib yuborish bilan teng ekan...

FRANSIYA ning qishloqlarida sizga g'ildirak sovg'a qilishsa, ajablanib yurmang. Bu doimiy harakatda bo'lish, degan ma'noni bildiradi.

Gulira'no MUSAYEVA, Shayhontohur tumanidagi
186-maktabning 4 «B» - sinf o'quvchisi.

2006 YILGA DO'STLIK VA YARQINLIK

Salom, qadrlil «Tong yulduzi»! 2006-yil uchun qay bir nashrga obuna bo'lsak ekan, deya boshimiz qotib turgandi. 47-soningda chop etilgan «Har bolaga ikkita «Tong yulduzi» maqolasini o'qib, yanagi yil uchun faqat senga obuna bo'lishga ahd qildik. Qolaversa, sinf rahbarimiz Gulchehra opa Ashurova ham senga obuna bo'lishimizni maslahat berdilar. Chunki bu yil uni «Ma'naviyat soat»larimizda o'qib, tahlil qilishimizda, maqola yuzasidan fikrlashib, bahslar uyushtirishimizda sahifalaringda e'lon qilinayotgan maqola va lavhalar juda qo'l keldi-da.

Sinf burchagimizda «Tong yulduzi»ning yillik jamlanmasi mavjud. Bizni ajoyib bolalar nashriga do'st qilgan sinf rahbarimizga sinfimiz nomidan rahmat aytmoqchiman.

Surayyo XUSHBAKOVA,
Termiz shahar, 13-umumta'lim maktabining
7-«E» sinf o'quvchisi.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi
bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida

022-raqam bilan
2003-yil 11-dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va
chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba
kuni chiqadi.

Hajmi A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 13279

Buyurtma N: J 1901

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin
SHAYADGAROV.

Navbatchi:

Ozoda

TURSUNBOYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manziliimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-38-10

144-63-08

Tel./faks:

(99871) 144-24-45



Durdonabegim
poytaxtimizdagi

8-«B» sinf o'quvchisi.

QODIROVA,
129-maktabning